



## **Terminallarni o'rnatish, ta'mirlash va almashtirish.**

Yangilangan sana: Chr, Iyun, 13, 2018

### **Terminallarni o'rnatish va foydalanish talablari**

Savdo terminallari o'rnatiladigan joylarni va xonalarni tayyorlash uchun hech qanday maxsus tadbirlarni amalga oshirish talab qilinmaydi.

Savdo terminalidan va uning tashqi mijoz klaviaturasidan foydalanish shunga o'xshash ofis va maishiy elektrotexnikadan foydalanish shartlariga muvofiqdir.

To'liq funksiyali, statsionar terminallarni elektr ta'minoti, tok kuchlanishi 220 volt, o'zgaruvchanlik darajasi 50 gerts bo'lgan birlamchi elektr tarmog'idan amalga oshiriladi

To'la funksiyali, ko'chma terminallarni elektr ta'minoti o'rnatilgan akkumulyator batareyalaridan amalga oshiriladi. Akkumulyator batareyalari tok kuchlanishi 220 volt, o'zgaruvchanlik darajasi 50 gerts bo'lgan birlamchi elektr tarmog'i orqali maxsus uskunadan quvvatlantiriladi.

Mobil terminallar ikkita 1,5 volt kuchlanishdagi standart batareykalar yordamida quvvatlantiriladi.

Foydalanish qoidalari talablariga savdo do'kon xodimlari va boshqa shaxslar (masalan karta egasi) qat'iy rioya qilishlari shart, aynan:

- barcha operatsiyalarni amalga oshirish vaqtida terminallarni riderlaridan uning savdo kartasini yoki mijoz kartasini olish mumkin emas. Operatsiya tugashini kutish kerak, operatsiya tugashi operatsiya chekini chop etilishi, yoki terminal displeyida, uning tashqi mijoz klaviaturasidan tegishli xabar kelishi bilan tugaydi, shundan keyin plastik kartochni riderdan chiqarish mumkin.
- operatsiyani amalga oshirishdan avval savdo do'koni xodimlari terminalni chop qilish uskunada qog'oz borligi haqida ishonch hosil qilishlari kerak;
- operatsiyani amalga oshirish vaqtida terminalni elektr tarmog'idan o'chirmaslik kerak;
- terminal orqali savdo kartasini inkassatsiya operatsiyasi, karta egasini «mablag'lar yuklash», «avtorizatsiya», «hisob varaq balansini ko'rib chiqish» operatsiyalari jarayonida terminal modem tizimini telefon tarmog'idan uzmaslik kerak;
- mobil terminal orqali operatsiyalarni amalga oshirish paytida terminallardan elektr ta'minot qismlari-batareykalarini chiqarish mumkin emas;
- operatsiya chekini yoki nazorat tasmaini chop etish vaqtida qog'ozni aylantirish uchun terminal klaviaturasining tegishli tugmasini bosish, chop etiladigan chekni va nazorat tasmaini majburiy ravishda kuch bilan tortib olish mumkin emas;
- savdo kartasi va mijoz kartasini mikroprotsessoriga va plastik kartasiga, plastik karta ishdan chiqishining oldini olish uchun, mexanik zarb berish va boshqa shunga o'xshash harakatlarini amalga oshirish mumkin emas.
- savdo terminalidan foydalanishni va plastik karta egalari xizmat ko'rsatish qoidalarini bank vakillari tomonidan o'qitilgan savdo do'koni xodimlari almashgan holda, savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi yangi xodimlarini, savdo xodimlari yoki bank vakili tomonidan o'qitishni

ta'minlashlari lozim;

- riderlar, terminal va savdo kartalari ishdan chiqishining oldini olish uchun mazkur qurilmalarga begona buyumlar va suyuqliklar tushishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Savdo terminali, uning tashqi mijoz klaviaturasidan, savdo kartasidan foydalanish, bank vakili tomonidan o'qitilgan savdo do'koni xodimlariga ruxsat beriladi.

Ma'lumot Respublika Yagona Protsessing Markazi tomonidan taqdim etilgan. [www.uzkart.uz](http://www.uzkart.uz) [1]

## **Terminallarni ta'mirlash va almashtirish**

Korxonalar, tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun, faqat bank tomonidan ma'qullangan savdo terminallari va boshqa texnik vositalardan foydalanishlari shart.

Terminallarni ochish va ularni mustaqil ravishda ta'mirlash man etiladi. Chunki, terminal dasturini buzish orqali firibgarlik operatsiyalarini o'kazishga qarshi himoya o'rnatilgan. Terminaldan foydalanish vaqtida muammolar yuzaga kelganda, bank filiallariga yoki yaqin atrofdagi xizmat ko'rsatuvchi servis markazlariga murojat qilish lozim.

Servis markazlarida Monetel, Ingenico, Sagem, PAX i XiMAX rusumidagi POS-terminallarini kafolatli ta'mirlash va kafolat davridan keyin xizmat ko'rsatish ishlari amalga oshiriladi. Mutaxassislar terminallarning tashqi qobig'ini va butlovchi buyumlarini tez va sifatli ta'mirlaydilar. Tashqi qobiq to'liq yaroqsiz holga kelganida yangi qobiqqa qayta o'rnatish imkoniyati mavjud.

Files:

**Ilova**

**O'lchami**

 [Yuklab olish \(PDF\)](#) [2] 227.63 KB

---

## **Links**

[1] <http://www.uzkart.uz/>

[2] [http://xalqbanki.uz/sites/default/files/page\\_files/terminal.pdf](http://xalqbanki.uz/sites/default/files/page_files/terminal.pdf)